

**TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI  
GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI***Radjabov Shavkat Dilmurod o‘g‘li**Dengiz va okeanlarning geologik faoliyati. Cho‘kindi tog‘ jinslari***ANNOTATSIYA**

Yerda tirik Jon yashagani kabi suvda havoda va tuproqda ham katta-kichik jonzotlar va mikroorganizmlar hayot kechiradi. Dengiz va okeanlardagi hayot unda yashaydigan jonzotlar va suvning biokimyoviy xususiyatlari haqida maqolamizda yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** abissal, batial, botiqlar, abraziya, sunami, nekton, bentos, plankton, zooplankton

**АННОТАЦИЯ**

Так же, как живое существо живет на земле, большие и маленькие существа и микроорганизмы живут в воде, воздухе и почве. Жизнь в морях и океанах освещена в нашей статье о живущих в ней существах и биохимических свойствах воды.

**Ключевые слова:** абиссальный, батимальный, болота, абразия, цунами, нектон, бентос, планктон, зоопланктон.

**ABSTRACT**

Large-small creatures and microorganisms live in the water in the air and in the soil, just as a living soul lives on Earth. Life in the seas and oceans is covered in our article about the creatures that live in it and the biochemical peculiarities of water.

**Keywords:** Abyssal, batial, boots, abkhazia, tsunami, nekton, bentos, plankton, zooplankton.

Okean va dengizlarning geologik faoliyati. Dengiz va okean suv havzalarining geologik faoliyatini o‘rganish biz uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki sayyoramizdagi okean va dengiz suvlarining geologiya fanidagi roli juda muhimdir. Mexanik, kimyoviy va xemogen cho‘kindi tog‘ jinslari, neft, gaz, fosforit, temir, marganes, mis kabi qazilma boyliklarning ko‘pchiligi dengizi havzalari ostida bunyodga keladi. Vaqt o‘tishi bilan yer sharining materiklar yuzasida hosil bo‘lgan foydali qazilmalar ham tamom bo‘lishi mumkin. Jinslarning miqdori juda katta bo‘lganligi bilan ular baribir cheklangan. Dengiz osti jarayonlari bilan bog‘langan hozirgi kunlarda ham paydo bo‘lib turgan ayrim foydali qazilma boyliklardan tashqari, yer po‘stlog‘ida yangidan hosil bo‘lib turgan endogen konlar yo‘q, yoki biz yashab turgan antropogen davrimizda ham yangidan-yangi endogen konlar hosil bo‘lish kelajagi yo‘q. Demak, biz kon qidirish ishlarini baribir yaqin kelajakda dengiz suv havzalari tomon yo‘naltirishimizga to‘g‘ri keladi. Yer sharining taxminan 71% i yoki 361 mln.km<sup>2</sup> keladigan maydoni dengiz va okean suvlari ostida, faqat 29% gina

quruqlikdan iboratdir. Boshqacha aytganda Dunyo okeanining maydoni quruqlik maydonidan 2,5 barobar kengdir. Yer sayyorasi suvining – bu degan so‘z hozirgi vaqtda den-suvlarining jami (erosti suvlaridan tashqari) 1,0 mlrd tonnadir. Tabiatdagi jismlar orasida suv issiqlik sig‘i-mini singdirish bo‘yicha eng oldinda turadi. Uning bu xususiyati boshqa jismlarnikiga nisbatan bir qancha barobar ko‘pdir. Xuddi shu xususiyati tufayli suv o‘zining ulkan issiqlik rejimi bilan yerning ustki va ostki qatlamlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Dengiz va okean suvlari yozda o‘ziga issiqlikni toza jamlab olib, shu issiqligi bilan qishda atmosferani ancha ilitib turadi, dengiz va okean oqimlarini shimoliy va janubiy yarim sharlarga yo‘naltiradi, iqlim sharoitini boshqarib turadi, Dengiz suvlari harakatlari materiklarni butun bo‘lib o‘tgan geologik tarixiy davrlarda har doim bezovta qilib kelgan. Quruqlikda cho‘kindi hosil bo‘lishida quyosh nuri, havoni isishi, yoki sovishi, erkin kislorod va boshqa tashqi jarayonlar asosiy ro‘l o‘ynasa, dengizda suvdagi eritma, chuqurlik, bosim, oqim, harorat, erkin kislorodsiz sharoit va organik dunyo kabi omillar jinslar hosil bo‘lishida muhim ahamiyatga egadir. Ma‘lumki, okean va dengizlar yer yuzasining 361 mln.km<sup>2</sup>, ya‘ni 70,8 % maydonini egallab o‘zida 1370 mln km<sup>3</sup> suvni saqlaydi. Demak dengiz va okeanlar quruqlikdan keltirilgan shag‘al, qum gil, ohak, ximiyaviy eritma va organik qoldiqlar to‘playdigan havza hisoblanadi. Dengizda bo‘ladigan geologik jarayonlar keng maydonda sodir bo‘ladi. Shu sababli to‘plangan yotqiziqlar qalin yoki yupqa qatlamlardan tashkil topib uzoq masofaga yoyilib ketadi. Shunday qilib dengiz va okeanlar katta ish bajaruvchi, behisob cho‘kindi va foydali qazilmalar makonidir.

Dengizlarning geologik ishiga bog‘liq bo‘lgan omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Okean va dengiz tubining relyefi va fizik – mexanik xossalari
2. Okean va dengizlardagi mexanik va ximik yotqiziqlar
3. Okean va dengizlardagi organik yotqiziqlar .
4. Okean va dengizlarning foydali qazilmalari.

Okean va dengizlarda cho‘kindilarning to‘planishi sharoiti ma‘lum darajada ularning tubini tuzilishiga va harakatiga bog‘liqdir. Dengizlar chuqurligiga va relyefiga qarab nerit (0 – 200 m) batial (200-2500 m), va abissal (2500m-dan chuqur) oblastlarga bo‘linadi. Quyida uch okean va Dunyo okeani suvining o‘rtacha haroratini keltiramiz:

- 1) Atlantika okeani suvi K 16,9°S;
- 2) Hind okeani suvi K 17,0°S;
- 3)Tinch okeani suvi K 19,1°S;
- 4) Dunyo okeani suvi o‘rtacha K 17, 4°S.

Demak, bu uchala okean ichida eng ilig‘i Tinch okean, eng sovug‘i Atlantika okeani ekan. Bunday bo‘lishi ularning geografik joylashishiga bog‘liqdir. Dengiz suvi haroratini o‘rganish quruqlikning turli qismlarida iqlim sharoitini o‘rganishga yordam beradi. Masalan, shimolda Murmansk portining qishda muzlamasligiga sabab Atlantika okeanidan iliq oqim – Golfstrimming shu yerga yetib kelishidir. Dengiz



suvining rangi va shaffofligi undagi loyqa va organik zarrachalarning ko'p ozligiga bog'liqdir. Dengiz suvi to'q ko'k, jigarrang, sariq bo'lishi mumkin. Bunga dengizdagi suv o'tlarining rangi sabab bo'ladi. Sargasso dengizining suvi eng shaffof bo'lib, uning shaffofligi 66,5 metr chuqurlikda ham o'zgarmaydi. Tiniq suvning rangi to'q ko'k bo'ladi. Dengiz suvida har xil tuz va gazlar erigan bo'lib, ular taxir – sho'r maza beradi. Dengiz suvida 80 xildan ko'p kimyoviy elementlar borligi aniqlangan (35 g.l) ularning ko'pi juda oz miqdorda uchraydi. Bu elementlarning 78,32 % ini osh tuzi, 9,44 % ini MgCl, 0,251 % ini Mn, Zn, qo'rg'oshin, mis, oltin va boshqalar tashkil qiladi. Agar dunyo okeanining suvini bug'latib yuborish mumkin bo'lsa, uning tagida 60 m qalinlikda tuz qatlami paydo bo'lar edi. O'rta hisobda Dunyo okeanining 1000 gr suvida 35 gr erigan tuzlar bo'ladi. Suvning sho'rligini foiz bilan emas, balki promille (0/00) da hisoblash qabul qilingan. Dengiz suvida tuzlardan tashqari J, F, P, Si, V, Ag, Zn, Fe, Cs, Mn, Al, Li, Ru, Au borligi aniqlangan. Dengiz suvlarining sho'rlanishiga iqlim katta ta'sir ko'rsatadi. Ekvatorda yog'in ko'p yog'ishi sababli sho'rlik 340/00 gacha kamayadi, tropik mintaqa oblastlarida iqlim quruq va issiq, bug'lanish juda ko'p bo'lganligidan sho'rlanish 37,9 0/00 gacha ko'payadi. Dengiz suvlarida erigan gazlar ichida kislorod birinchi o'rinda turadi. Kislorod dengizning eng chuqur yerlarigacha yetib borganligidan o'sha joylarda ham hayot bor. Suvdagi kislorod va SO<sub>2</sub> ning miqdori suv harorati bilan juda aloqador. Suvning harorati qancha past bo'lsa, yuqorida aytilgan gazlar suvda shuncha ko'p eriydi. Gazlarning suvdagi miqdori quyidagichadir:

0 ° da – 18 sm<sup>3</sup> O<sub>2</sub> 1,4° da – 32° - 53,31 mg.l SO<sub>2</sub>

10 ° da – 6,45 sm<sup>3</sup> O<sub>2</sub> 10- 15°-43,50 mg.l SO<sub>2</sub>

20 ° 5,31 sm<sup>3</sup> O<sub>2</sub> 25° -28,7° -35,88 mg.l SO<sub>2</sub>

35°- 4,17 sm<sup>3</sup> O<sub>2</sub>. Gaz dengiz chuqurligiga qarab tarqaladi. Masalan: Qora

dengizda kislorod faqat 40-50 m chuqurlikda bir xil miqdorda saqlanadi. Bundan chuqurda kislorod kamaya boradi. Organizmlarning rivojlanishi va tarqalishi dengiz suvining sho'rligiga bog'liqdir. Keyingi 30-40 yillar davomida dengiz va okeanlarning chuqur joylarida hayvonlar kam degan fikr hukmron edi. Endilikda shu narsa aniqlandiki, dengiz va okeanlarning turli chuqurliklarida tirik mavjudotlar shunchalik ko'pki, bularga qaraganda materik bir cho'ldek ko'rinadi. Bizga ma'lum bo'lgan hayvonlarning 75 % i suvda paydo bo'lgandir. Okean va dengizlarda eng oddiy hayvon va o'simliklardan tortib chig'anoqli, bo'g'inoyoqli, umurtqali va nihoyat suyakli sut emizuvchi hayvonlar ham yashaydi. Eng ko'p hayvon turlari (40000) tropik mintaqadagi okeanlarda uchraydi. Ulkan suv o'simliklari masalan arxipelagida hatto qalin suv osti o'rmonini hosil qilgan. Bunday joylar Yevropa maydoning 1/3 qismiga to'g'ri keladigan mashhur Sargasso dengizida ham kuzatiladi. Dengiz sohillarining tuzilishi u yerda o'simlik va hayvonlarning rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Ma'lumki, qoyali sohillarda ko'pincha parmalovchi mollyuska turlari: metodomus, polaz va qattiq chig'anoqli mollyuska turlari, dengiz tipratikanlari, aktiniylar, qisqichbaqalar yashaydi

va suv o'tlari o'sadi, o'txo'r qorin oyoqli mollyuskalar yashaydi. Toshloq sohillarida tosh ostiga yashirinishni yaxshi ko'radigan hayvonlar yashaydi. Bu sohillarda ohak chig'anoqli bulutlar, mishankalar, qumloq sohillarda serpulalar, dengiz yulduzlari, qisqichbaqasimonlar, qo'shtabaqali mollyuskalar yashaydi. Tropik mintaqalardagi dengizlarda marjonlilar keng tarqalgan bo'lib, ulardan marjon orollari hosil bo'lgandir. Serit va ustritsa hamda qisqichbaqaning bir necha xili loyqa sohillarda yashashni yaxshi ko'radi. Dengizda organik hayotning tarqalishi va taraqqiyoti uni tubining tuzilishiga bog'liq. Shunga ko'ra o'simlik va hayvonlar yashash sharoitlariga va tarqalgan joylariga qarab 3 guruhga bo'linadi:

- 1) dengiz tubida va unga yaqin suvda yashovchi hayvon va o'simliklar.
- 2) suvning o'rta qatlamlarida yashovchi faol suzuvchi hayvon va o'simliklar – nekton.
- 3) suvda passiv harakatlanuvchilar – planktonlar, planktonlar sho'r va chuchuk suvda yashayveradi, ularning chig'anog'i dengizlar tagiga cho'kib ohaktosh hosil qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: (References)

1. X. Chiniqulov, A. X. Jo'liyev. Umumiy geologiya.
2. X. Chiniqulov. R. N. Ibragimov. Strukturaviy geologiya va geologik xaritalash
3. <https://internet-start.net/>